



O‘ZBEK KOMPOZITORLARI HAMDA BASTAKORLARINING FOLKLOR ANSAMBLARI VA BOSHQA IJODIY GURUHLARI UCHUN MOSLASHTIRILGAN ASARLARI

Muallif: Munisa Adhamova¹

Affilyatsiya: Toshkent shahar Madaniyat boshqarmasi Madaniy faoliyatini rivojlantirish va xalq ijodiyoti sho‘basida bosh mutaxassis¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14466437>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek xalq musiqa madaniy merosining o‘rni va ahamiyati, folklor qo‘shiqlarini ko‘p ovozli ijroga moslashtirish va zamonaviylashtirish hamda bastakor va kompozitorlarning folklor san‘ati sohasidagi ijodi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Folklor, san‘at, kompozitor, qo‘shiq, ko‘p ovozlilik, ijro, musiqa, janr.

Xalqimizning milliy-ma‘naviy merosini musiqa san‘atisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Azal-azaldan ajdodlarimiz tomonidan yaratilib, qadriyatlar sifatida shakllanib kelinayotgan milliy urf-odatlarimiz, an‘anaviy tarzda avlodlardan avlodlarga o‘tib, xalqimizning buyuk ma‘naviy dunyosini namoyon etib kelmoqda. Xalq musiqa ijodiyoti, musiqa sohasidagi yozma manbalar, bastakorlik san‘ati, kasbiy musiqa ijodiyoti bunga yorqin misoldir. Chunonchi, bu jarayon musiqa san‘atining barcha kasbiylik ahamiyatiga ega bo‘lgan tarmoqlari uchun asos bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Mustaqillik sharofati bilan barcha sohalar kabi milliy musiqa san‘ati ham nazariy hamda amaliy jihatdan keng o‘rganilib, har tomonlama ravnaq topib kelayotganligi sir emas. Buning asosiy sabablaridan biri respublikamizda xalqimiz o‘tmishini o‘rganishga, buyuk allomalar yaratgan ilmiy merosni idrok etishga, sohaning amaliyotini o‘zlashtirish bilan birga nazariy mezonlaridan bilim olishga katta e‘tibor qaratilayotganligidir.

Asosiy maqsad ham yoshlarimizni komil inson sifatida tarbiyalash, hech kimdan kam bo‘lmagan barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Zero, “Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e‘tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o‘sib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liq”. Darhaqiqat, san‘at millatning ma‘naviy boyligi, hayotining ko‘zqusidir. San‘atlar ichida musiqa xalqqa tez yetib boradigan, keng ommalashgan turi hisoblanadi. Musiqa san‘ati o‘zining qadimiyligi, janrlarga boyligi, mazmun-mohiyatan keng qamrovliligi, ommabopligi bilan jamiyat turmush hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Musiqa san‘atining muhim tarmog‘i musiqa ijodiyoti va ijrochiligidir. Musiqiy namunalar yaratilish va ijro etish kabi mezonlarni o‘z ichiga oladi.

Bastakorlik ijodining nazariy va amaliy ildizlari haqida ko'plab olimlarning ilmiy izlanishlari, ushbu soha tushunchasi hamda qarashlarni kengaytirishga qaratilgan. Shulardan Al-Kindiy, Al-Forobiy, Ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Darvesh Ali Changiy kabi allomalar hamda zamonamizning musiqashunos olimlari I. Rajabov, F. Karomatli, T. Vizgo, M. Ahmedov, K. Olimboyeva, A. Jabborov, T. G'ofurbekov, O. Matyoqubov, R. Abdullayev, R. Yunusov, A. Nazarov kabilarning ilmiy-tadqiqot ishlarini keltirish lozimdir. Hozirgi davrga kelib, o'zbek an'anaviy musiqa ijrochiligi har tomonlama mukammal, teran mazmunli, an'ana va zamonga mos sayqal topayotganiga guvoh bo'lamiz. Bu, albatta, mustaqillik davrida milliy musiqa ijodiyoti va ijrochiligiga bo'lgan e'tiborning yuksakligidir. An'anani saqlab, davom ettirish uchun davr yoshlari mohir ijrochi bo'lishlari barobarida, kelgusida shu sohaning yetuk mutaxassisi, kamolotga yetaklovchi o'qituvchisi, ya'ni har tomonlama bilimdon ustoz sifatida kamolga yetishishlari lozim. Ma'lumki, XX asr musiqa ijodiyoti yangi oqimlar bilan boyidi.

O'zbekiston musiqa madaniyati tarkibida Yevropadan ko'p ovozli kompozitorlik ijodi va ijrochiligi kirib keldi, musiqa ta'limida va 6 ijodda ustuvor yo'nalish sifatida unga katta e'tibor qaratildi. Uzoq o'tmishli, muayyan shakl tarkibiga ega bo'lgan va ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan an'anaviy bastakorlik ijodiyoti nazardan chetda qoldi. Shunday bo'lsa-da, bastakorlik ijodiyoti o'ziga xos tarzda davom ettirilganligi hamda zamonga mos yaratilgan asarlar o'zining shakl-u shamoyilini asragan holda, ammo uslub jihatidan davrga moslashganligini kuzatish mumkin. Bastakorlarning yangi avlodi, o'tmish ijodkorlar an'analari davom ettirgan holda o'ziga xos uslublarni yaratdilar. Ijod etilgan asarlar ham xalqonaligi, an'anaviyligi va zamonaviyligi bilan ijro amaliyotida ommalashib, rivojlandi. Ijodiyotda janrlilik xususiyat kengaydi. Qolaversa, bastakorlik ijodiyoti an'anasi zamonaviy musiqa ijodiyoti bilan boyiganligini e'tirof etish mumkin.

O'zbek kompozitorlik ijodiyotining negizida ham bastakorlik an'analari, tafakkuri va musiqa merosiga bo'lgan munosabatlari o'z aksini topganligi bunga sababdir. Oxirgi chorak asr xalq musiqa ijodiyotida o'ziga xos davr bo'ldi. Bastakorlik ijodiyotida ushbu davrni qayta tiklanish sinovi desa bo'ladi. Chunki bastakorlikda turli uslublarning jonlanishi va ularning ichida an'anaga xos uslubning afzalligi isbotini topayotgandek. Bular, asosan, kuylarni qayta ishlash, nag'ma pardoqlikka (aranjirovka), taqlid va ko'chirmachilikka e'tibor kuchaygan jabhaga taalluqlidir. Mumtoz musiqaga bo'lgan e'tiborning tiklanishi va qayta inobatga olinishi, ommaviy musiqa madaniyatining kirib kelishi va taqlidchilikning kuchayishi, ularga ergashish va badihago'ylikka berilib ketishlik o'z natijasini ko'rsatdi. Oqibatda, o'zbek bastakorligining azaliy an'analari, ustoz-shogird saboqlarining asosligi, tarix davomida shakllangan bastakorlik ijodiyoti hamda ta'limi amaliyotda o'z ijobatini topdi.

Mustaqillik davrida esa, ana shu barcha tarixiy jarayon, ijrochilik amaliyotining bosqichlari, bastakorlik ijodiyotining uslub, yo'nalish va namoyandalar faoliyatini teran o'rganish imkoniyatlari 7 yaratilmoqda. Bu imkoniyatlar ta'lim jarayoniga joriy etilgan, yoshlarning bu boradagi ma'naviy dunyosini rivojlantiradi. Kelajakda milliy musiqa merosimizning rivoji, bastakorlik ijodiyotining kamoloti xalqimizning qadriyatlariga xos, an'analarga mos, zamon talabidagi jihatlar bilan sug'orilgan holda rivoj topishi begumondir.

O'zbek xalq musiqa merosi xazinasida kattalar bilan kichik yoshdagi bolalar ma'naviy dunyosini o'zida uyg'unlashtirgan bolalar folklor musiqa asarlari, bolalar qo'shiqlari ham muhim o'rin tutadi. Bunday qo'shiqlar o'zida bolalar hayoti, ruhiyati, bolalarga xos turli o'yinlar, aytishuvlar, hayvonot va o'simliklar tabiat hodisalari bilan bog'liq holatlarni o'ziga xos ifoda etishi bilan ajralib turadi. Bolalar qo'shiqlari ham xalq musiqasining ommaviy turlari singari badiiy va g'oyaviy mazmunga ega bo'lib, matni sodda, nihoyatda ixcham, o'yin-raqs bop xarakterga egaligi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Bunday qo'shiqlar bolalarning ruhiy, aqliy dunyoqarashiga mos soddaligi, ko'proq harakatli o'yinlar bilan ijro etilishi, kuylashga osonligi va bolalar diqqatini o'ziga tez jalb qilish xususiyati tufayli ulardan ta'lim-tarbiya tizimida keng foydalanish uchun qulaylik tug'diradi. Shuning uchun ham umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflaridan o'quvchilarda milliy musiqa namunalari havas va ishtiyoq uyg'otish, xalq musiqasini o'rganishda ularning g'oyaviy-badiiy mazmunini anglash, idrok qilish va ularga tavsif bera olishga o'rgatish, shu asosda musiqaning jiddiy va murakkab turlariga ham ijobiy va ijodiy munosabatni shakllantirish bugungi kunda musiqa ta'limi va tarbiyasi uchun mas'ul tarbiyachi-pedagoglar oldidagi dolzarb vazifalardandir. Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida bolalar tafakkuriga xos, ko'proq o'yin bilan bog'liq folklor qo'shiqlar, kuy va yengil aytimlarni o'rgatish musiqa ta'limining milliy asosini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Demak, musiqa darslarida xalqimizning milliy musiqa merosi tarkibidagi bolalar folklor qo'shiqlaridan maqsadga muvofiq holda foydalanish, ularni ijro etish uslublarini e'tiborga olgan holda tatbiq etish har bir musiqa o'qituvchisidan o'ziga xos pedagogik yondashuv, bilim va mahoratni talab qiladi. Shu bois biz ham musiqa darslarida bolalar folklor qo'shiqlarini o'rganishning ayrim jihatlariga ilmiy-ijodiy nuqtayi-nazardan yondashish va uning milliy musiqiy ta'lim samaradorligini ta'minlashdagi imkoniyatlariga to'xtalib o'tishga harakat qildik.

1. Milliy musiqiy qadriyatlar, xalq musiqasining ommaviy janrlari tarkibidagi bolalar folklor qo'shiqlarini ta'lim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq etish, shu orqali o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy qadriyatlarimizni teran his qiluvchi, xalq musiqasiga hurmat, uni sevish, qadrlash orqali ong, milliy nafosat ruhida tarbiyalash ishlarini eng avvalo pedagog kadrlarni tayyorlovchi pedagogika oliy o'quv yurtlarida yaxshi yo'lga qo'yish kerak.

2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa san'atining milliy va ommaviy turlari bo'yicha badiiy havaskorlik to'garaklarini tashkil etishga e'tiborni kuchaytirish lozim.

3. Xalq qo'shiqlari, bolalar folklor qo'shiqlari maqsadli ravishda o'yin-raqs, harakatlari va milliy cholg'ular jo'rligida, bolalar ijodiy jamoalari ijrosidagi video yozuvlarni chiqarish va barcha maktablarni ta'minlash;

4. "Musiqiy ta'lim" yo'nalishi bo'yicha pedagog-kadrlar tayyorlaydigan o'rta maxsus va oily ta'lim tizimida xalq musiqasi, an'anaviy va folklor qo'shiqlari bo'yicha maxsus kurs, tanlov fanlari, qo'shimcha mutaxassislik fanlarini tashkil etish;

5. Xalq musiqa janrlari bo'yicha folklor ansambllari faoliyatiga va ularning ijodini targ'ib qilishga, jamoalarni respublika, viloyat va tumanlar miqyosidagi ko'rik-tanlovlarni o'tqazib turish.

Xullas, bolalar folklor qo'shiqlari orqali o'quvchi-yoshlarning musiqiy madaniyatini, ma'naviy va badiiy estetik tarbiyalashning pedagogik va metodik tizimini yaratish, bugungi kungacha to'plangan mavjud tajribalarni o'rganish, turli viloyatlarda faoliyat

yuritayotgan folklor-etnografik ansambllar faoliyatini o'rganish, ular repertuaridagi bolalar folkloriga tegishli namunalarni to'plash, umumlashtirish va ta'lim jarayoniga tatbiq etish orqali musiqiy ta'limning milliy asoslarini mustahkamlashga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Mirziyoyev Sh.M. " Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". – T., O'zbekiston, 2017-yil.

Panjiyev Q. va boshqalar "Musiqqa to'garaklarini tashkil etish metodikasi". T.: - B. 80. 2020.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 2020 yil 23 sentyabrdagi O'RQ-637-son bilan tasdiqlangan.

Panjiyev Q.B. "O'qituvchi-yoshlarni darsdan tashqari vaqtlarini to'g'ri tashkil etishning muhim sharti besh tashabbus". Toshkent davlat pedagogika univesiteti Ilmiy axborotlari jurnali. 87-94 b.

Do'stmuhammedova G.D. "Musiqqa to'garaklarini tashkil etish" O'quv qo'llanma. Toshkent 2024. 178 bet.

